

398.21  
48-20

DUNYO BOLALAR ADABIYOTI

幸  
由



YAPON XALQ  
ERTAKLARI



  
**YANGI ASR AVLODI**  
**TOSHKENT**  
2020

UO'K: 398.21(=521)

KBK: 82.3(5Yapon)

Ya - 70

Yapon xalq ertaklari. Tarjimon Zilola Jalolova. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.  
- 32 b.

ISBN 978-9943-20-740-0

«Dunyo bolalar adabiyoti» ruknida taqdim etayotgan mazkur kitobimiz ertakka chanqoq bolajonlarimiz uchun ajoyib tuhfa bo'ladi. Murg'ak qalblarga odamiylik ilmi aynan shu kabi voqea-hodisalar, qiziqarli suhbatlar, oq va qora ranglar orqali beriladi. Yaxshining yomondan afzalligi, to'g'rining egridan farqi, ezgulikning mukofoti-yu zolimning jazosi ertaklar orqali yosh avlod ongiga chuqurroq singadi.

Demak, mutolaani boshlaymiz, eng yaxshi kitoblarimiz bolajonlarimiz uchun muntazir!

UO'K: 398.21(=521)

KBK: 82.3(5Yapon)

**Tarjimon:**

Zilola JALOLOVA

ISBN 978-9943-20-740-0

© «Yapon xalq ertaklari». «Yangi asr avlodi», 2020-yil.

MINGBULOQ TUMAN  
AXBOROT-KUTUBXONA

MARKAZI

№ 26 OK 20 24.

№ 25648

## LAYLAKNING PATI

Juda qadim zamonda tog' yon bag'ridagi qishloqda chol bilan kampir yashar ekan. Ular befarzand ekan.

Kunlarning birida chol o'rmonga borib, bir quchoq o'tin yig'ibdi. O'tinni yelkasiga ortmoqlab tog'dan tushayotganida qandaydir mungli ovoz eshitilibdi.

Atrofni sinchiklab qarasa, to'rga Laylak ilingan ekan.

– Eh boyaqish-a, sabr qil, hozir senga yordam beraman, – deb chol o'tinlarni yerga qo'yib, uni to'rdan chiqaribdi.

To'rdan qutulgan Laylak osmon-u falakda parvoz etib, qanotlarini yoyganча shovqin solib sayrabdi.

Qosh qorayib, chol-u kampir kechki ovqatga dasturxon yozishibdi. Taomga endi qo'l cho'zishganda eshik taqillabdi.

– Shu mahalda kim keldiykin? – deya otaxon eshikni ochibdi. Qarshisida qorga burkangan oppoqqina qiz turganmish.

– Adashib qoldim. Qiynalib ketdim, yo'l ham ko'rinmayapti, – mu'loyim so'zlabdi qiz.

– Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan. Xijolat tortmay ichkariga kir, qizim, – mehrini ayamay uyiga taklif qilibdi kampir. – Kel, biz bilan ovqatlan.

Qiz qurmag'ur chiroyda tengi yo'q hamda shirinso'z ekan. Ovqatlanib bo'lishgach, o'rnidan turib, keksa ayolga uy ishlarida qarashibdi. So'ng unga:

– Yelkangizni uqalab qo'yaymi? – debdi.

– Baraka top, bolam. To'g'risi, belim biroz og'riyotgandi. Isming nima, chirog'im?

– O Suru.

– O Suru – Oppoq qiz. Yaxshi ism ekan, – dedi kampir kulib.

Xushmuomala qiz qariyalarning ko'nglidan joy oldi. Ular bilan sira xayrlashgisi kelmasa-da ertalab yo'lga chiqdi. Chol va kampir esa befarzand ekanliklarini, ular bilan bexijolat birga qolishi mumkinligini aytishibdi.

– Mening ham hech kimim yo‘q. Jon deb qolaman. Minnatdorchilik evaziga sizlarga bejirim mato to‘qib beraman. Lekin ishlayotganimda taqillagan ovoz eshitsangiz ham xonaga mo‘ralamang. Chunki kimdir qarab tursa, yaxshi ishlolmayman.

Qiz qo‘shni xonada ish boshlashi bilanoq «qur-qur-kra» degan ovozlari eshitilibdi.

Uchinchi kuni O Suru naqshli, bejirim mato o‘ramini olib chiqibdi. Matoga qizil maydonda zarg‘aldoq rang laylaklar uchib yurgani tasviri tushirilgan edi.

– Chiroyliligini, – ajablanibdi kampirsho, – ko‘z uzolmaysan-a!

Mato momiq pardan ham yengil edi.

– Oppoq, qizim, oriqlab qolibsanmi? Yuzing so‘lg‘in, – payqabdi chol unga diqqat bilan tikilib. – Keyingi safar o‘zingni urintirma, xo‘pmi?

Shu on kimningdir xirillagan hayqirig‘i eshitilibdi:

– Xonadon egalari, gazlamangiz bormi? – so‘rabdi qishloqdagi dehqonlardan to‘qilgan matolar xarid qiluvchi savdogar Ganta. – Qishga g‘amlab, to‘qib qo‘ygandirsiz?

– Hartugul arzirli bir nimamiz bor! – bo‘sh kelmabdi kampir. – Mana qara, buni Oppoq qizimiz o‘z qo‘llari bilan to‘qigan.

Kampir savdogarga qizil matoni yoyib ko‘rsatibdi. Matodagi zarg‘aldoq rang turnalar go‘yo tirikday parvoz qilardi.

– Naqadar ajoyib! Bunaqasini poytaxtda ham hech kim ko‘rmagan. Qizingiz mohir to‘quvchi ekan, – pitillab qolibdi Ganta.

Olibsotar qirol saroyida matoni yaxshi narxga pullay olishini bilibdi. Chol bilan kampirdan o‘ylab ham o‘tirmay uni xarid qilib olibdi.

– Oltin tangalar! Rostdan ham oltin! – uy egalari ko‘ziga ishonmay, biri olib, biri qo‘yib, tillaga mahliyo edi. Negaki sodda chol bilan kampir umrida birinchi marta oltin ushlashi edi.

– Rahmat senga, qizim. Endi ro‘zg‘orimizga baraka kiradigan bo‘ldi, – chin dildan tashakkur aytishibdi ular. – Bayramga senga yangi ko‘ylak tiktiramiz. Husningga yanada ko‘rk bag‘ishlaydi. Bizning qizimizni ko‘rganlarning og‘zi ochilib qolsin!



Bahor kelib, quyosh tafti olamni qizita boshladi. Qishloqdagi bolalar Oppoq qizning yoniga kelib:

– Opajon, yuring birga o‘ynaymiz, – deb qo‘yishmas ekan. Ko‘pincha mittivoylar uning atrofiga tizilishib olishar, qiz ularga turli yovvoyi hayvonlar haqida ashulalar aytib berarkan. Bolalar u bilan maza qilib o‘ynashar ekan.

Bir kuni savdogar Ganta yana paydo bo‘libdi.

– Xayrli kun, bobojon! Noyob matodan yo‘qmi yana?

– Yo‘lingdan qolma. Qizim sho‘rlik o‘shandan keyin juda ozib ketdi.

Og‘rib qolmasin deyman.

Chol gapini tugatar-tugatmas Ganta uning qo‘liga oltin to‘la karmon tutqazibdi.

– O‘tgan galgidan ko‘proq haq to‘layman. Ko‘nmasang, o‘zingdan o‘pkala. Shohning o‘zi meni jo‘natdi, – do‘q-po‘pisa qilibdi surbet savdogar. – Uch kundan so‘ng matoni tayyor qilmasang, ishing chatoq, – qo‘rqitibdi u.

– G‘aflatda qoldik, endi nima qilamiz? – oh chekibdi qariyalar.

– Xavotirlanmanglar, mato aytilgan vaqtda to‘qib bitkaziladi, – deya ovutibdi O Suru.

U xonaga kirib eshigini ichkaridan qulflabdi. Hech qancha vaqt o‘tmay, u yerdan taqillagan ovoz eshitilibdi: «krik-krik-taq-tuq».

Uch kun to‘quvchilik uskunasi tinmabdi.

– Oppoq qizim, yetar endi, charchagandirsan, ishingni tugat, – yolvoribdi chol bilan kampir. Biroq qiz un chiqarmay ishlayveribdi.

Kutilmaganda Ganta ko‘chadan baqirib ularni chaqiribdi.

– Xo‘sh, mato tayyormi? – so‘rabdi u.

– Biroz kuting, – xonaga kiritmaslikni istadi qiz.

– To‘qiyaptimikin o‘zi? Nozik oyimdan o‘rgildim. Undan so‘rab o‘tiramanni? – savdogar nuroniylarning «hay-hay»iga qaramay eshikni bir tepib ochibdi.

– L-l-laylak! – qoʻrqib ketganidan duduqlanib qolibdi Ganta.

Uy egalari ham toʻquvchi uskuna oldida katta Laylak turganini koʻrib angrayib qolishibdi.

Qanotlarini keng yoyib olgan Laylak tumshugʻi bilan eng nafis va mayin patlaridan mato toʻqirdi: «krik-krik-kra-kra».

Chol va kampir darhol eshikni yopishibdi. Savdogar esa qoʻrqqanidan yugurgancha chiqib ketibdi.

Tong otgach, bolajonlar chol-kampirning uyi yoniga kelib:

– Oppoq qiz, tashqariga chiq, birga oʻynaymiz. Qiziqarli ertaklar aytib ber, – deb chugʻullashibdi.

Toʻquv xonasidan sas chiqmabdi. Qariyalar sarosimaga tushib, sekin-asta xonaga kirishibdi. Yerdagi atrofi mayin patlar bilan qoplangan, naqshli, jozibali mato yotardi.

Chol-kampir qizni har qancha qidirib chaqirishsa-da, churq etgan ovoz kelmabdi.

Oqshom payti qishloq bolalari «Bobojon, buvijon, tezroq koʻchaga chiqib, osmonga qaranglar», deb chaqirishibdi.

Chol va kampir shosha-pisha osmonga qarashsa, Oppoq qiz – Laylakoy samoda qur-qurlab, bazoʻr qanotini qoʻqardi.


– Oppoq qiz-ku! Bizning qizimiz-ku, – koʻz yoshi qilishibdi keksalar.

Uchayotgan laylak chol toʻrdan qutqarib olgan qush edi aslida. Laylak qizga aylangandi, lekin uni asrab qolisholmabdi.

– Qizim, yonimizga qayt, – deb chol-kampir qancha yalinib-yolvorishmasin, Laylak xayrlashganday mungli xonish qildi-da, kunbotar mahali samoda koʻzdan gʻoyib boʻlibdi.

Chol-kampir laylakoyni uzoq kutishibdi. Qush esa qaytib kelmabdi.

Aytishlaricha, olis-olislardagi orolda katta koʻl bor ekan. Baliqchilar koʻl boʻyida pati yulingan Laylakni koʻrib qolishgan emish. U chol-kampir qolgan tarafga bot-bot qarashdan charchamas ekan.





## BO'RSIQ VA YELPIG'ICH

Qadim zamonda Yaponiya taraflarda uzun burunli ajinalar bo'lgan ekan. Ularni tengular deb atashar ekan. Tengularning sehrli yelpig'ichlari bor edi. Yelpig'ichning bir tarafi burunga tekkizilsa, u bir zumdayoq o'sib ketarkan. Ikkinchi tarafi tegsa, o'z holiga qaytar ekan.

Bir kuni uch nafar jajji tengu o'rmonda sehrli yelpig'ichini o'ynatib, bir-birining hali u yer, hali bu yeriga urardi. Pismayib yotgan Bo'rsiq ularni maroq bilan kuzatardi.

– Qaniydi menda ham shunaqa yelpig'ich bo'lsa, bekorchi narsalarga bosh qotirmasdim, – deb o'ylabdi u. – Keyin o'zim bilardim nima qilishni.

Bo'rsiqlar turli nayranglarga ustaligini, istagan kishisiga aylana olishini hamma, hatto kichkintoylar ham bilardi.

Xullas, Bo'rsiq tengularni ham laqillatmoqchi bo'libdi. Qizchaga aylanib, likopchaga loviya solingan to'rtta shirin kulchani qo'yibdi.

– Mittivoylar, mana bu shirin kulchalardan tatib ko'ring, juda mazali, – debdi u tengularga.

Tabiiyki, tenguchalar bunday pishiriqlarni ko'rsa, o'zini tomdan tashlardi. Shirin kulchalarni ko'rdim demasdan qoringa joylagach, qarasha likopda yana bitta kulcha qolgan ekan. Ular bittagina kulchatoyini rosa talashishibdi. Bahslasha-bahslasha baribir yechim topisholmabdi. Shunda oraga Bo'rsiq tiqilibdi:

– Kim ko'zini uzoq vaqt yumib tursa, shirinlik o'shaniki, – taklif qilibdi u tullaklik qilib.

Tengular rozi bo'lib, ko'zlarini qattiq yumib, toshday qotib turaverishibdi. Bo'rsiq esa qulay fursatni boy bermay, yelpig'ichni olib qochibdi. Mittivoylar hamon miq etmay turishardi.

– Ha-ha-ha! – kulibdi Bo'rsiq. – Bopladimmi tentaklarni.

U sehrli yelpig'ichni qayerda ishlatishni uzoq o'ylagach, shaharga ketishga jazm qilibdi.

Shaharga kelgach, ibodatxona yonida bir suluv qizni uchratibdi. Go'zal qiz atrofida xizmatkorlar girdikapalak edi.

– Menimcha, u boyning qizi, – o'ziga o'zi debdi Bo'rsiq.



U qizga yaqin borib, uning burniga yelpig'ichni tekkizibdi. Birdan qizning burni uzun bo'lib o'sib ketibdi. Malika qo'rqqanidan qichqirib yuboribdi. Xizmatkorlar esa pitirlab qolishdi. Rosa qattiq shovqin ko'tarilibdi.

Hamma baloni boshlab qo'yan Bo'rsiq esa tosh ustiga o'tirib olib, ularning ustidan miriqib kulardi.

Qizning otasi shaharning eng boylaridan biri edi. U qizining dardiga shifo topish uchun barcha tabiblarni huzuriga chorlabdi. Afsuski, tabiblarning barcha urinishlari zoye ketdi.

Keyin shaharda «Boyning qizini kimda-kim darddan forig' qilsa, o'sha odamga u boyligining yarmini va qizini berar ekan» deb jar solishibdi. Ko'pchilik bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarmay deb ming chiransa hamki, qizning burni o'zgarmabdi.

Nihoyat, Bo'rsiq boyning yoniga kelib, «Menga qizingizni ko'rsating. Bir soniyada uni avvalgi holiga qaytaraman», – debdi. Umidi so'nmagan boy xursand bo'lib ketib, qizini uning qoshiga chaqiribdi.

Bo'rsiq yelpig'ichni qizning burniga asta urib qo'yibdi. Qiz yana avvalgi holiga qaytdi. Otasi esa quvonganidan ko'z yoshlarini yashira olmadi. Xizmatkorlariga to'yga taraddud ko'rishlarini aytibdi. Hammasi xamirdan qil sug'urganday, Bo'rsiqning nayranglari fosh bo'lmay o'tibdi. Faqat Bo'rsiq betayinligicha qolgandi. Kuni bilan yeydi-ichadi, bekorchilikdan oftobda toblanadi, bir ishni boshidan tutay demasdi. Zerikkanidan bir kuni:

– Nima ish qilsam ekan? – deb yelpig'ichini burniga tekkizibdi.

Burni osmon qadar o'sib ketdi. Bo'rsiq burniga tikilgancha mudrab uxlab qolibdi. Burni esa hamon o'sib borardi. U bir-ikkita, hatto uchta bulutni teshib o'tib, samoning eng cho'qqisigacha yetibdi.

O'sha paytda falak ustalari ko'prik qurayotgan ekan. Yerdan qandaydir ustun ko'tarilganini ko'rib:

– Mana, panjara uchun ustun tayyor, – deb sevinib ketishdi va bor kuchi bilan burunni tepaga tortishibdi.

Bo'rsiq uyg'ongach, hech narsani tushunmabdi. Atrofiga olazarak qaragancha qo'rqib ketibdi.

Zamin ancha olisda – pastda qolib ketgan, uning boshi uzra bulutlar suzib yurarmish. Bo'rsiq ovozi boricha rosa yordamga chaqiribdi, biroq hech kim uni eshitmabdi.

Shu-shu Bo'rsiqning holi hech kimga ayon emas emish. O'shandan beri odamlar ham uni boshqa ko'rishmabdi.

## O'ZIM BILAMAN

**B**undan ancha yillar avval bir qishloqda Yamada nomli Tulki bo'lgan ekan. Uning ayyorligi yetmaganday xurmacha qiligi ham ko'p ekan. Odamlarga makkorlik qilar, yo'l chetida unga rahm qilib, hamma yegulik tashlab ketisharkan. Qishloqdagi biror yig'in va to'ydan ham ulushsiz qolmas ekan.

– Mug'ombir Tulkiga tekin bo'lsa-yu yeb yotsa, – derdi qishloq ahli.

Qishloqda sodda va samimiy chol-kampir yashardi. Cholning chap ko'zi ko'rmasdi. U shahardagi bozorga tez-tez borardi. Tog'da tergan sabzavot va boshqa mahsulotlarni bozorga olib borib sotib kelardi. Puliga kampiri uchun baliq xarid qilardi. Kampir tushmagur baliqni juda xush ko'rardi-da.

Shunday kunlarning birida chol shaharga shoshib-pishib ketayotgan ekan. U odamlar kamdan-kam yuradigan egri-bugri, o't-o'lan bosib ketgan tor yo'ldan yuribdi.

Ko'zi yo'l chetida uxlab yotgan Tulkiga tushibdi.


– Voy-voy, bemalol yotishini qaranglar bu tekintomoqni! – debdi chol. – Yop-yorug' kunda Tulki uxlab yotganini birinchi marta ko'rishim. Tulki emas, afsungar bu, – yerdan tosh olib unga o'qtalibdi Chol. – Qoch bu yerdan! – qichqiribdi u. Tulki uyg'onib ketibdi. Cholga o'qrayib qarabdi. Nuroniy esa dovyuraklarcha unga tikilib, kiprik qoqmadbi.

– Qani, tur yo'qol! – baland ovozda baqiribdi u Yamadaga.

Tulki o'rnidan turib «Mayli, hali qaytishingni o'ylab qo'y, chol», – deb indamay ketibdi.

Tulki o'ylab-o'ylab chol bozordan qaytguncha kampirini boshini aylantirishni rejalashtiribdi va dumini likillatib, cholning uyi tomonga qarab ketibdi.

Sehrgar Tulki o'z o'qida gir aylanib, chol ko'rinishiga kirib olibdi. Tulki xuddi cholning o'zi bo'libdi-qolibdi. Biroq cholning chap ko'zi ko'rmasdi, Tulkining esa o'ng ko'zi qisilib qolibdi. Va nihoyat cholning uyini topibdi.



- Hoy kampir, men bozordan qaytdim! - debdi soxta chol.

- Erta qaytibsizmi? Nimadir bo'ldimi? - ishonqiramabdi kampir. Qarasa cholning o'ng ko'zi ko'rmasmish.

«Bu nimasi? - shubhalanibdi u. - Cholimning chap ko'zi qisq edi. Hozir o'ng ko'zi ko'rmayapti. Mening cholimga o'xshamayapti. Tulki Yamada meni laqillatayotganmikin», kampir taxmin qildi-yu, o'zini hech narsa sezmaganday tutibdi.

- Ana endi gapiring, chol. Baliq oldingizmi?

- Bo'lmasam-chi! - deb u kampirga katta baliq beribdi.

- O, naqadar chiroyli baliq! Barragina, semizgina. O'zingiz charchagan ko'rinasiz. Shaharga bormasangiz ham bo'lardi-ya. Uyga kirib dam oling.

- O'zim bilaman. Borishim kerak yoki kerakmasligini, - shartta javob qaytaribdi Tulki.

- Shu o'rinda siz doim «Kampir, charchadim, biroz hordiq chiqaray», der edingiz-ku.

- O'zim bilaman, - yana gap qaytaribdi soxta chol.

- Agar bilsangiz, «Uyimiz unchalik issiq emas, somon xaltani olib kelib, oyog'imni o'rab qo'y» derdingiz.

- Oyoqlarimni isitishni o'zim bilaman, - jahli chiqibdi Tulkining. - Borib xaltani keltir, kampirsho.

- Chol, qopga kirib belingizgacha somonga botsangiz, yaxshiroq isinarmidingiz?

- O'zim bilaman. Oyoqlarimni somon bilan isitishni yaxshi ko'raman, - soxta chol qopga oyoqlarini tiqibdi. Kampir esa unga yordamlashibdi.

- Menga qarang, chol, endi siz «Oyoqlarimni somon ipi bilan bog'la, shamol uchirib ketmasin tag'in» deyishingiz lozim.

- O'zim bilaman. Shamol meni uchirib ketishini istamayman, - o'jarlik qilibdi soxta chol kampir shubhalanmasligi uchun.

Kampir somon ipini olib, cholning oyog'ini tepadan pastga qadar bog'labdi.

- Uxlang chol, orom oling!

Tulki isingach, uyqu zo'rlik qilib uxlab qolibdi. Shu payt bozordan asl chol kelibdi.

– Kampir, qanisan, men keldim, – chaqiribdi u.

– Jin ursin, ikkisi ham bir-biriga bir tomchi suvday o'xshash-a, – qo'lini bir-biriga urib debdi kampir. – Faqat ko'zlarida farq bor. Cholimning chap ko'zi ko'rmasdi, anavi soxtasining esa o'ng ko'zi qisiq.

– Ko'p aljiramay, gapir Nima bo'ldi? – tushunmabdi chol.

Kampir indamay uning qo'lidan ushlab ichkariga olib kiribdi. Oyoq-qo'li bog'langan Tulki xonada uxlab yotardi. Uni tanigan otaxon:

– Hap senimi, turqisovuq Tulki! Bugun unga tanbeh berganim uchun o'zicha mendan qasd olmoqchi bo'lgan.

Chol va kampirning ovozini eshitib uyg'onib ketgan Tulki yana o'z holiga qaytganini sezibdi.

– Meni qo'yib yuboringlar, sizlarni ortiq laqillatmayman, – yalinishga tushibdi Tulki.

– Tezroq dumingni tug. Odamlar bilan o'chakishmasdan ayyorlik qilishga yetgan aqlingni yaxshilikka ishlat, – debdi chol unga rahmi kelib.

O'shandan beri qishloqda Tulki ko'rinmas emish. Aholi esa omadsizliklardan va turli kulfatlardan qutulibdi.



## SIRLI FINJON

Qadim-qadim zamonda qishloqda bir boy bo'lgan ekan. Uning xonadonida yillar davomida juda ko'p narsalar o'zgaribdi. Lekin sirli finjon asliyatini sira yo'qotmabdi. Maftunkor finjon havorang quymali, yashil chinnidan yasalgandi. Ba'zi-ba'zida boy finjonni qutidan olib, unga uzoq mahliyo bo'lar va yana joyiga solib qo'yardi.

Bir kuni boy do'stlari bilan tamaddixonaga kechki ovqatga boribdi. Taomlar bir-biridan mazali edi. Barchaning qorni to'ysa-da, oshxona xo'jayini patnis-patnis yeguliklarni tashib kelaveribdi. Har qanday taom chiroyli likoplarga solib keltirilardi. Bir payt boyning ko'zi havorang quymali, yashil chinni finjonga tushibdi. Do'stlari ham bunday noyob finjonni qo'lma-qo'l uzatib maqtashardi.

– Betakror!

– Umrimda birinchi marta ko'rishim!

– Jahonda topilmas! – degan fikrlarni eshitgach, boy jim turolmay xo'jayinni chaqiribdi.

– Qadrdonim, sendan shu finjonni sotib olmoqchiman. So'raganingni beraman.

Xo'jayin egilib tashakkur bildiribdi-da:

– Ming bor uzr, finjonimni sota olmayman. U otamdan meros, otamga esa bobomdan qolgan. Ajdodlarimiz uni ko'z qorachig'iday asrab kelgan.

– Merosing bilan ishim yo'q. Olaman dedimmi, olaman! – achchig'i kelib o'shqiribdi boy.

Oshxona xo'jayinining qo'liga 30 tillo tanga berib, finjonni shartta undan olib, atayin yerga tushirib yuboribdi. Betakror finjon chil-chil bo'lib sinibdi. Tamaddixona xo'jayinining fig'oni falakka ko'tarilib, dodlab yuboribdi. Mehmonlarning kayfiyati buzilib, uy-uyiga tarqalishibdi. Boy esa jilmayib qo'lini artibdi.

– Noyob finjon faqat mening uyimning xazinasini! – debdi xudbin boy dili og'rigan tamaddixona xo'jayiniga qarab.

Kechasi uyiga qaytgan boy xazina qutisini ochib, finjonini ko'zdan kechirmoqchi bo'libdi. Qutini ochishi bilanoq hushidan ketibdi. O'ziga kelgach esa, ne ko'z bilan ko'rsinki, qutida chinni finjonining bo'laklari bilan birga oshxona xo'jayiniga bergan 30 tillo tanga bor edi.

Xudbinlik bilan o'zgalar qalbini pora-pora qilgan boyning ham yurak-bag'ri chil-chil bo'lgan ekan.





## QUTQARUVCHI AKULA

Qadim zamonda bir chol bo'lib, uning ikki qizi va uch o'g'li bor ekan. Qizlar bo'y yetib, turmushga chiqishibdi. Qushlar kabi uchirma bo'lishibdi. Nuroniy otaxon o'g'illari bilan qolibdi. Otaxonning ko'zlari ojiz edi. O'g'illarisiz hech narsaga yaramasdi. Kunlarning birida bolalari unga:

– Biz yer haydagani ketdik. Siz hovlida o'tirib, qushlarni haydab turing, bug'doyni cho'qib bitirishmasin, – deyishibdi.

– Qo'limdan kelarmikin, bolalarim. Axir ularni ko'rmasam...

– Diqqat bilan tinglang-da, karmassiz-ku har holda, ota! – ta'kidlabdi o'g'illar. – Qushlar uchib kelgach, qopni cho'qilaydi. Shunda ularni eshitasiz, – ular otasiga qaroqchi qushlarni haydash uchun bambukdan yasalgan uzun tayoq berishibdi. Otasini hovlining o'rtasiga o'tkazib ketishibdi.

Kech tushib uyga qaytishsa, ota hamon tayoqni taqillatib o'tirar, qopning bir tomonidan qushlar ham bug'doyni paqqos tushirishardi.

Buni ko'rgan uch o'g'lonning jahli chiqibdi.

– Egasi ming poylasin, o'g'ri bir poylasin.


– Bittayam foydangiz yo'q!


– Yoshini ham yashab bo'ldi, – akalarining gapini ma'qullabdi kenja o'g'il ham. – Tezroq gumdon bo'lsaydi, bari boylikni bo'lib olardik. Qiyinchilik ko'rmay yashardik.

Shunday sovuq niyat qilgan bolalar bir kuni otasining yoniga kelib:

– Otajon, uzoq orolga borishga ahd qildik. Yuring, biz bilan toza havodan bahra olib kelasiz, – deyishibdi.

Ota xursand bo'lib rozilik bildiribdi. Barchasi uzoq orolga yo'lga tushishibdi. U yerda baliq ovlashibdi, dam olishibdi. Qorong'i tushishi bilan esa o'g'illar rejalashtirgan qabih ishlarini amalga oshirmoqchi bo'lishibdi.





– Ota, yoʻl charchatdi sizni. Yotib uxlang, ortga qaytganda sizni uygʻotamiz, – deb ular otasini qayiqda qoldirib, oʻzlari sohilda qayoq-qadir daf boʻlishibdi. Chol dilbandlarining gapiga koʻnib, qayiqda uxlab qolibdi. Tong otgach, bolalari yonidamasligini bilib, ularni birma-bir chaqiribdi. Lekin biror kishi ovoz bermabdi. Bechora chol oʻgʻillari uni kimsasiz orolga tashlab ketishganini, ochlikdan halok boʻlishini istashganini tushunib yetibdi.

Kutilmaganda dengiz shiddat bilan koʻtarila boshlabdi, kuchli shamol esibdi.

Toʻlqinlar qoyalarga urilib, katta oqim qayiqni choʻqqi tomon sudrab, cholni dengizga oqizib ketibdi.

Ayni shu paytda shahardan cholning qizlari otasidan xabar olgani sovgʻa-salomlar bilan kelishgandi. Eshikni taqillatishsa, hech kim ochmabdi. Hayron qolib qoʻshnini chaqirishibdi.

– Otamiz biror kulfatga yoʻliqmadimikin? Bizni kutib oʻtirmoqchi edi.

Qoʻshni yelka qisib:

– Qaydam, otangizga nima boʻlganini bilmayman-u, biroq kecha oʻgʻillari bilan baliq oviga ketishayotganini koʻrgandim. Qorongʻi tushgach esa yigitlar otasiz qaytishibdi. Ehtimol, yoʻlda kasal boʻlib qolganidir, – dedi.

Qizlar dengizga chopishibdi. «Otamiz suv tubida», deb oʻylashibdi ular. Agar shunday boʻlsa, otasini suv ustiga dengiz chiqarib qoʻyadi.


Qirgʻoqdagi qoyatoshlarni qarab chiqishibdi, hech kim yoʻq edi. Ikki qiz suv boʻyida yigʻlab oʻtirishibdi. Toʻsatdan oroldan uzoq boʻlmagan masofada dengizda bitta qoyatosh koʻrinibdi. Unda chol oʻtirardi.

– Otajon! Otajon! – baqirib yuborishibdi qizlar. – Tirik! Otamiz tirik! – deb ular qayiq olishibdi-da otasi tomon shoshilishibdi.

– Toshga qanday oʻtib qoldingiz? – soʻrabdi qizlar. – Nima boʻldi oʻzi?

Chol ogʻir xoʻrsinib:

Oʻgʻillarim mendan qutulish uchun qabih reja tuzadi deb oʻylamagandim. Ular meni kimsasiz orolda qoldirib ketishdi. Dengizda



bo'ron ko'tarilib, meni qoyatoshdan siljitdi, sal qolsa otangizni boshqa ko'rmasdingiz.

– Qanday qilib omon qoldingiz? – hayratlanishibdi qizlar.

– Suv tubiga tushib borayotganimda qayoqdandir akula kelib, meni beliga o'tkazib oldi-da, qoyatoshgacha olib keldi.

– Otamizni qutqarganing uchun minnatdormiz sendan, akula! – deyishibdi qizlar ovozi boricha.


Ular qirg'oqqa chiqishganda, uzoqda haqiqatan ham ulkan akula suzib yurganini ko'rishibdi.

– Unga rahmat aytishimiz kerak, – debdi qariya.

Qizlar dengiz bo'yiga kattagina buqani olib kelishibdi. Akula suzib kelib, buqani oldi-da suv tubiga sho'ng'ib ketibdi. Birdan chol yosharib, ko'zi ham avvalgiday yaxshi ko'radigan bo'lib qolibdi. Ularning quvonchi ichiga sig'masdi! So'ng qizlar otasini uyga olib ketishibdi.

O'g'lonlar esa otasini o'ylashmabdi ham. Cholning boyligini bo'lib olib, buni nishonlash uchun noz-ne'matlarni qayiqqa yuklab, baliq ov-lamoqchi bo'lishibdi. Ochiq dengizga tushib olgach, suvga to'r tash-lashibdi. Kech tushay deganda birdan kuchli shamol ko'tarilibdi va qayiqni u tomondan bu tomonga chayqab, axiyri ag'darib yuboribdi. Aka-ukalar g'arq bo'layotganlaridan qo'rqib ketib, tinmay yordamga chaqirishibdi. Biroq ularni hech kim eshitmabdi.

Shunday qilib, otasini o'ldirish uchun tuzgan rejasi ish bermagan oqibatsiz o'g'illar tubsiz dengiz qariga cho'kib ketibdilar. Cholning qiz-lari esa shaharda otalari bilan uzoq va baxtli hayot kechiribdilar.



## AJDARHO QASRINING QO'NG'IROG'I

**B**u voqea ancha avval sodir bo'lgan. Simonosekidagi Sennendzi ibodatxonasiga katta qo'ng'iroq ilingandi. Uning jarangi olis-olislarga qadar taralib, odamlarning ko'ngliga huzur, xotirjamlik bag'ishlardi.

Har kuni saharda qo'ng'iroqchi uni bir marta chalardi.

– Ana, Sennendzi ibodatxonasining qo'ng'irog'i uyg'ondi. Dalaga ketadigan payt bo'libdi, – derdi dehqonlar.

Shu zaylda aholi soat necha bo'lganini katta qo'ng'iroqning ovozini eshitib bilardi.

– Eshitdingizmi? – savol berishardi bir-biriga ular. – Qo'ng'iroq chalingi. Uyga qaytish kerak.

Ayrim joylarda odamlar qo'ng'iroq ovozigagina moslashib yashashardi.

Bir kuni dehqonlar dalaga chiqishibdi, g'ayrat bilan ishlashayotganda, Sennendzining ulkan qo'ng'irog'i yangrab qolibdi. Ular hayron:

– Qo'ng'irog'imiz no'rin chalindimi? Qandaydir falokat yuz berdimikin?

Ibodatxona rahbari esa bundan taajjublanibdi. Jahl otiga minib: «Nima jin urdi? Bu paytda qo'ng'iroqqa balo bormi?» debdi.

Ruhoniy ibodatxonadan chiqib, qo'ng'iroq o'rnatilgan ayvonga qarabdi, aqldan ozishiga sal qolibdi, chunki qo'ng'iroq qimirlar, uni chalayotgan kimsa esa ko'rinmasdi.

– Ana xolos! – qo'llarini ko'taribdi u. – Qo'ng'iroq chindan o'zi chalinganini qayerda ko'rgansiz-a?

O'sha kundan boshlab Sennendzi ibodatxonasida haqiqiy mo'jizalar ro'y bera boshlabdi. G'ira-shirada qo'ng'iroqxonada shamol esadi, yarim tunda esa qo'ng'iroq jaranglab ketib, butun hududni «ding-don-ding dong» degan jaranglar tutadi.

Aholi yomg'ir yoqqanda va bo'ron bo'lganda u qattiq jaranglashini payqashibdi.

– Hammasi bekorga emas, bu yerda bir gap bor, – deyishardi-yu, lekin nima qilish kerakligini bilishmasdi.



Bora-bora qo'ng'iroqning dastidan umuman tinchlik bo'lmay qolibdi. Tuni bilan jaranglab chiqar ekan. Qulog'ingni yopib olsang ham befoyda. Dehqonlar ko'rpani boshigacha yopib olsa ham mijja qoqmay chiqishar ekan.

Ruhoniyning yoniga gulruxsor qiz shom payti kelmaguncha ahvol o'sha-o'sha davom etibdi. Qiz ibodatxonaga kirib:

– Meni Ajdarlar saroyidagi dengiz sultoni yubordi. U qo'ng'irog'ingizga shaydo. Uni saroyimizga jo'nating, aks holda boshingizga balolar yog'ilaveradi. Ibodatxona vayron qilinib, qo'ng'iroq ham parcha-parcha bo'lib ketadi, – debdi-yu tutunga aylandi. Tutun dengiz tubiga yetgach, g'oyib bo'libdi. Ertasi kuni ruhoniy dehqonlarni chaqiribdi va bo'lib o'tgan voqeani tushuntiribdi.

– Ajdarlar saroyi dengiz hukmdorining amrini bajarish darkor. Bo'lmasa ular bizni qirib tashlashadi, – deya bir qarorga kelishibdi dehqonlar. – Faqat qo'ng'iroqni qanday qilib yechib, sohilga olib boramiz?

O'ylay-o'ylay ular ayollarning uzun sochlaridan baquvvat to'r to'qishga qaror qilishibdi. Qishloq bo'ylab soch yig'ishibdi, kimdir bir tutam bersa, yana kimdir ikki o'rim sochini beribdi. Ikki kunda katta va mustahkam to'r to'qilibdi. Buni qarangki, ikki kun qo'ng'iroq chalinmabdi.

Uchinchi kuni ertalab dehqonlar ibodatxona oldida yig'ilishibdi. Qo'ng'iroqni pastga olib tushish uchun eng kuchlilarni tanlashibdi. Ibodatxonadan ruhoniy ham chiqibdi.

Odamlar ishga kirishish uchun endi yeng shimarib turishganda, qo'ng'iroqxona ayvonidan qandaydir tovush eshutilibdi. Odamlar boshini ko'tarib dong qotib qolishibdi: qo'ng'iroq qimirlab, chuqur xo'rsinganday bo'libdi va o'zi pastga tusha boshlabdi. U yondan bu yonga chayqalib, toshli zinalardan asta yerga tushibdi. So'ng bir silkinib, qishloq bo'ylab qadam tashlabdi.

Toqqa yaqin kelganda to'xtab, nafas rostlabdi, tik ko'tarilgan yo'lakdan tepaga chiqa boshlabdi. Sohilga borgach, suvga tushib, o'sha yerda to'xtabdi.

Dehqonlar qo'ng'iroq ortidan yugurib kelib, endi uni dengiz tubiga qanday tushirsak ekan, deb o'ylashibdi.



– Darhol Matagaroni chaqiring. U qishlog‘imizdagi eng kuchli odam, – debdi ruhoniy.

Matagaro bilan birga sherkelbat o‘g‘lonlar ham kelishibdi. Ular qo‘ng‘iroqni suv tomon itarishdi. Qo‘ng‘iroq suv tubiga sho‘ng‘imguncha uzoq tortishibdi.

Matagaro bir mahal qarasa, qo‘ng‘iroqning qulog‘i qo‘lida qolib ketibdi. Qulog‘ini tortaverganidan uzilib ketgan ekan.

Aytishlaricha, o‘shandan beri qishloq halovat topibdi. Ruhoniyga esa buyuk sirlar fosh etilibdi. Bo‘ronlar, to‘fonlar, to‘lqinlar hamda turli ofatlarning kelish vaqtini o‘rganibdi. U baliqchilarga yordam berar, obhavoning o‘zgarish vaqtini aniq aytib berolgani uchun hosilni asrab qolishar ekan.

Ibodatxonaga esa yangi qo‘ng‘iroq olib kelishibdi. Bunisi ham avvalgisidan yomon emasdi. Ajdarholar saroyining qo‘ng‘irog‘i butkul unut bo‘lmasin deb, uning qulog‘ini yangi qo‘ng‘iroqning tepasiga o‘rnatib qo‘yishibdi.



## G'AROYIB SAYOHATCHI

Qadim-qadim zamonda qishloqda bir badavlat kishi yashagan ekan. Mol-u dunyosining adog'i yo'q ekan, ammo qishloqda undan-da xasisroq odam yo'q ekan.

Yangi yil arafasida uning uyiga Qorbobo kelibdi.

– Uyingda dam olsam maylimi? Qornim ham och, bir kecha yotib qolishimga ruxsat ber, iltimos, – deya yolvoribdi Qorbobo.

– Bir kechaga? – g'azablanibdi boy. – Uyimga har qanday daydilarni kiritishim qoluvdi, yana Yangi yil kirib kelay deganda-ya. Hammaga ayon, Yangi yilda eshigingdan kim birinchi kirib kelsa, yil bo'yi kuning shunaqa o'tadi. Gadoy yetmay turuvdi! Tuyog'ingni shiqillat-chi!

Boy xizmatkorlarini chaqiribdi. Ular tayoq olib, Qorboboni ayamay savalashib, darvozadan uloqtirishibdi.

Qorbobo xo'rsinib o'rnidan turibdi-da, sekin-asta qadam tashlab, to'g'riga qarab ketaveribdi. Qishloqning chekkasiga borib qolgan Qorbobo g'arib kulbayi vayronani ko'rib qolibdi.

Uning yoniga borib, eshigini taqillatibdi:

– Yaxshi odamlar, muruvvat qiling, uyingizda bir kecha tunay.

Munkillab qolgan, yoshi yuzdan oshgan keksa otaxon bilan onaxon Qorboboga eshik ochishibdi.

– Bemalol kirib damingni olishing mumkin. Aybga buyurmaysan, juda nochormiz, dasturxonga qo'ygani tuzukroq yeguligimiz ham yo'q.

Qorbobo ichkariga kirgach:

– Yo'qchilik qursin, – debdi.

Nuroniylar esa:

– Uzr, qo'limiz kalta. Balki boynikiga borarsan, bugun Yangi yil ziyofatini uyushtirgan.

– Boy bo'lmay qolsin, u yerda meni tayoq bilan siylashdi. Siznikida qolishimga izn bering, ko'rinib turibdi ahil-inoq yashaysiz.

– Pul yo'qligi ofat emas. Biz bir-birimizga doim ko'maklashamiz, qarib qolganimiz chakki bo'ldi-da, – so'z ochibdi chol.

– Hozir Yangi yil eshik qoqib keladi. Choy ichaylik. – taraddudlanibdi kampir.



U qaynagan suv olib kelib, hammaga uzatibdi. Mehmon choy ichgach:  
– Endi sizlarni men ham mehmon qilsam. Otaxon, siz shox-shabba olib keling, buvijon, siz esa qozon keltiring.

– Qorbobo nimani reja qilyapti o‘zi, nima pishirmoqchi? – deb qariyalar hayron bo‘lishibdi. Biroq indamay uning aytganini qilishibdi.

Mehmon o‘tin yoqib, qozon osibdi, unga qo‘lini yaqinlashtirganida qozon ichida guruch bilan qizil loviya paydo bo‘libdi. Ular qozonning og‘ziga qadar ko‘p edi.

Qariyalar ko‘zlarini katta-katta ochib, bir so‘z aytolmay qolishibdi.

– Oling, avval mazasini tatib ko‘ring, – ehtirom qilibdi Qorbobo. – Keyin menga boshqacha nazar bilan boqasiz.

Otaxon bilan onaxon qorni to‘yguncha ovqatlangach, mehmonga tashakkur aytib uxlashibdi.

Ertalab uyg‘onishsa, Qorbobo ketib qolibdi.

– Menga qara, kampir, bu oddiy Qorbobo emasdi-yov, – o‘ylanib turib so‘zlabdi chol. – Nazarimda u sehrgar Qorbobo edi.

Chol-kampir Yangi yil yaxshi kelishini tilab ibodat qilishibdi.

Ibodatxonaga kirishlari bilanoq u yerda kechagi Qorboboni ko‘rishibdi. U tabassum qilib turardi.

– Yangi yilingiz bilan! – debdi u.

– Seni mehmon qilolmaganimiz uchun bizni kechir, – uyalib so‘zlabdi chol.

– Unday emas, – debdi Qorbobo. – Menga sizning xonadoningiz yoqdi. O‘zingizga ayon, men yaxshilarni himoya qilaman. Istagingizni amalga oshirishga ahd qildim. Tilang tilagingizni.

– Qo‘ysang-chi, – qo‘llarini silkitishibdi nuroniylar. – Boriga shukur!

– Rostdan hech narsa kerakmasmi?

– Ha, – bosh irg‘ashibdi chol va kampir. – Hammasi yaxshi-yu sog‘liqda muammo bor: oyoqlarimiz yaxshi yurmaydi.

– Sizga qanday minnatdorchilik bildirishni bilaman. Yoshligingizni qaytaraman. Baxt-u iqbolga to‘yib yashanglar, – debdi Qorbobo.

Chol bilan kampir yoshgina yigit va qizga aylanib qolishibdi. Ular quvonganlaridan bir-biriga mahliyo bo‘lib, Qorboboga rahmat aytishmoqchi bo‘lishgan edi, u g‘oyib bo‘lib qolibdi.

Ushbu g‘aroyib yangilikdan butun qishloq voqif bo‘libdi.

Bundan xabar topgan boy esa:

- Tekinxo'r landavurlar, uyimizga Qorbobo kelganini fahmlamadingizmi? - deya xizmatkorlarini urishibdi. - Yer tagidan bo'lsa ham qariyani topib kelinglar!

Xizmatkorlar atrofdagi o'rmon-u qishloqlarni kezib chiqishibdi-yu, cholni topa olishmabdi. Bir mahal u katta daraxt tagida hordiq chiqarayotganini ko'rib qolishibdi.

- Hurmatli Qorbobo, bizning uyimizda ham mehmon bo'ling, - yaltoqlanibdi xizmatkorlar. - Xo'jayinimiz sizni ko'rib boshlari ko'kka yetardi-da.

- Siz aytganday bo'la qolsin, - bazo'r ko'nibdi Qorbobo.

Qorbobo xonadon eshigidan kirishi bilanoq boy uning oyoqlari tagiga otilibdi.

- Bir kechaga tunashingga og'ringanim uchun kechir. Axir sehrgar Qorbobo ekaningni bilmay qolibman-da. Kelgan ekansan, endi xotinim bilan meni yoshartirib qo'y.

- Juda soz, - jilmayib qo'yibdi Qorbobo. - Hammani chaqir.

U barchani, shu jumladan, xizmatkorlarni ham to'plabdi. Qorbobo boy va uning xotinini boshini silagan edi, ularning badanini yung qoplab, maymunga aylanib qolishibdi. Maymunlar «Ku-ka-kya» degancha tog' tomon ketib qolishibdi. Boyning xizmatkorlari esa sichqonlarga aylanib qolishibdi va ular uy burchaklariga tumtaraqay qochishibdi.

Boyning uyi ship-shiydam bo'lib qolibdi. Qorbobo kambag'alning yoniga kelib shunday debdi:

- Koshona egasiz qoldi. Shu yerga ko'chinglar. Chorvasi, ekin maydoni ham sizga. Tirishqoqlik bilan mehnat qilsangiz, hech narsaga zoriqmaysiz.

So'ng Qorbobo g'oyib bo'libdi. Yosharib qolgan chol-kampirlar yangi uyga ko'chib o'tishibdi. Faqat tunlari tog'dan maymunlar tushib, ularga qahr bilan qichqirisharkan.

Er-xotinning hadeb maymun tilida urishaverishi yangi uy egalari-ga yoqmabdi. Bir kuni ular yana uyga yaqinlashganda, uydagilar olov yoqishibdi. Maymunlar qo'rqqanidan nari ketishibdi. Shu-shu ularning qorasi boshqa ko'rinmabdi.

Yaxshi insonlar bu xonadonda tinch-totuv hayot kechirishibdi.

## QALDIRG'OGH VA OSHQOVOQ

**K**osuke bilan Otsukiti oilasi hamsoya edi. Kosukelar o'ziga to'q, Otsukitilarning esa qora qozoni arang qaynardi. Bu voqea bahorda sodir bo'libdi. Otsukiti uyining tomi tagiga qaldirg'och in quribdi. Unda qaldirg'och uchta polaponini boqar ekan.

Bir kuni jo'jalardan biri inidan tushib ketib, qanotini sindirib olibdi. Otsukiti buni payqab, tezda uning qanotini bog'labdi. Kuz kelib, barcha qaldirg'ochlar janub tomon uchib ketishibdi. Ularning orasida qanoti singan qaldirg'och ham bor edi.

Qushlar janubga qanot qoqib kelishganida, o'sha qaldirg'och o'z boshlig'iga Otsukitining odamgarchiligi haqida so'zlabdi. Qaldirg'ochlar qiroli uni diqqat bilan tinglagach:

– U mehridaryo inson ekan. Keyingi bahorda borganingda albatta unga minnatdorchilik bildirgin, – debdi.

Yana bahor kelibdi, qaldirg'ochlar Otsukiti uyining tagiga yana uchib kelishibdi. Kunlarning birida Otsukiti tashqariga chiqqanida u yordam bergan qaldirg'och oyog'ining tagiga qandaydir pista donasini tashlab ketibdi. Otsukiti uni yerdan olib, bog'dagi daraxt yoniga ekib qo'yibdi.

Oz fursatda dondan ko'chat o'sib chiqibdi, keyin tok bo'libdi, so'ngra oppoq bo'lib gullabdi va ikkita katta oshqovoq solibdi.

Otsukiti ularning birini kesib ko'ribdi. Hidining xushbo'yligidan tatib ko'rishni istabdi. Oshqovoq juda xushxo'r edi. Saxiy inson butun qishloqdoshlarini shirin oshqovog'i bilan siylabdi.

Qishloq ahli «Mazasiga gap yo'q!» deya oshqovoqni maqtab-maqtab rosa yeyishibdi. Ikkinchi oshqovoqni Otsukiti quyosh nurlariga qo'ydi. Oshqovoq qoqi bo'lgach, uning ichidan tilla tangalar chiqibdi.

– Ayni muddao! – deya Otsukiti tillalarni tayinli joyga qo'ysa hamki, oshqovoqning ichidan yana tillalar qaynab chiqaveribdi. Shunday qilib, u juda boyib ketibdi.

Qo'shnisi Kosukening unga g'ayirligi kelibdi. Baridan xabar topgach, Otsukitidan qaldirg'och uyasini so'rab olibdi. Kosuke qanchalik kutmasin, polaponlardan hech biri inidan tushib ketmabdi. Toqati toq bo'lgan boy qaldirg'och iniga tosh otibdi. Jo'jalardan biri qo'rqqanidan yerga tushib, qanotini sindirib olibdi. Kosukening quvonchi ichiga sig'may.



uning qanotini bog'lab qo'yibdi. Kuzda qaldirg'ochlar yana janubga uchib ketishibdi. Kosuke esa:

– Yaxshi bo'ldi. Bahor kelsa, qaldirg'ochlar meni ham Otsukitini mukofotlagan kabi unutishmaydi, – deb o'ylabdi o'zicha.

Qushlar janubga yetgach, qanoti singan qush qaldirg'ochlar qiroliga Kosuke otilgan toshdan qanotini sindirib olganini aytibdi.

– Bunaqa yaramas odamni jazolash joiz, – qovog'ini uyib debdi qaldirg'ochlar qirol.

Bahorda Kosuke uyining shiyponchasidagi inga qaldirg'ochlar qaytib kelishibdi.

Bir kuni Kosuke hovliga chiqqanida, qanoti singan qaldirg'och uning yoniga qandaydir don tashlab ketganini ko'ribdi.

– Nihoyat, meni unutishmabdi! – degancha u donni olib, bog'ining bir chetiga ekibdi. Tez orada don bo'y cho'zib ko'karib chiqibdi. Undan tok o'sib chiqibdi, tokdan esa oq gullar chiqibdi, keyin ikkita katta oshqovoq solibdi.

Kosuke oshqovoqlar pishgach, birini qishloq ahliga ulashibdi. Ammo oshqovoq shunaqangi achchiq va qattiq ediki, hech kim uni yeyolmabdi.

Ziqna Kosuke esa:

– Birinchi oshqovoq achchiq va qattiq bo'lsa ham mayli, ikkinchisidan tilla tangalar chiqsa bo'ldi, – deb o'zini ovutibdi. Keyin ikkinchi oshqovoqni quyoshda qoqi qilishga qo'yibdi.

– Bu oshqovoq qurisa, cheksiz oltinlar egasiga aylanaman, shunday ekan, ularga joy hozirlashim darkor, – qaror qilibdi Kosuke. Oshqovoq quriguncha katta-katta qutilarni tayyorlabdi. Ularni uyga olib kirib ham bo'lmasdi.

Oshqovoq qurib bo'lgach, xasis boy ichi qurib uni kesib ko'ribdi. Tilla tangalar o'rniga uning ichidan qora tutun chiqibdi. Bu kutilmaganda yuz bergani bois, Kosuke cho'chib ketib yerga yuzi bilan yiqilib tushibdi.

Yerda yotsa-da, xavotirlanardi: «Tutun chiqsa-da uy-joyim yonib kul bo'lmabdi».

Tutun yo'qolib, Kosuke o'rnidan turibdi. Uyi butun edi.

G'alati ish bo'libdi! Xazina va oltinlari uy ichiga berkitilgan edi, bari tutun bilan g'oyib bo'libdi.

Shunday qilib, halol va qalbi toza Otsukiti badavlat, muttaham va xasis Kosuke esa kambag'al bo'lib qolibdi.



## MUNDARIJA

LAYLAKNING PATI.....	3
BO'RSIQ VA YELPIG'ICH.....	8
O'ZIM BILAMAN.....	11
SIRLI FINJON.....	15
QUTQARUVCHI AKULA.....	17
AJDARHO QASRINING QO'NG'IROG'I.....	21
G'AROYIB SAYOHATCHI.....	25
QALDIRG'OCH VA OSHQOVOQ.....	29

*Adabiy-badiiy nashr*

## YAPON XALQ ERTAKLARI

Muharrir

Gavhar MIRZAYEVA

Badiiy muharrir

Zilola TO'LAGANOVA

Rassom

Sarvar FARMONOV

Kompyuterda sahifalovchi

Ravshan MALIKOV

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 23.09.2020-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 1/16.

Bosma tabog'i 2,0. Shartli bosma tabog'i 2,59.

Garnitura «Minion Pro». Ofset qog'oz.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 111.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

**Murojaat uchun telefonlar:**

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.

Marketing bo'limi – (98) 128-78-43.

faks – (71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru





 @bookuzbekistan  
 @bookuzbekistan  
 @bookuzbekistan



www.book.uz  
Onlayn kitob do'koni

ISBN 978-9943-20-740-0



9 789943 207400

